



SCIENCE TIME

XUSRAV VA FARHOD MUNOZARASINING QORAQALPOQCHA TALQINI

Zuhra Azilova Gulmon qizi

Nukus davlat pedagogika instituti,
O‘zbek adabiyoti kafedrası assistent-
o‘qituvchisi.

E-mail:azilovazuhra@gmail.com

Annotatsiya: Maqlolada Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonidagi Xusrav va Farhod munozarasining qoraqalpoqcha tarjimasi asliyat bilan qiyosiy-solishtirma tahlil qilinib, o‘zbek mumtoz adabiyotini qoraqalpoq lisoniga tarjima tarixi, uning muammolari masalalari o‘rganilgan. Shuningdek, tarjima jarayonidagi mutarjimlar amalga oshirgan transformatsiyalar, xususan, asliyatdagi ayrim so‘zlarni tashlab ketish, o‘zgartish kabilar borasida ham fikr-mulohazalar bildiriladi.

Kalit so‘zlar: doston, munozara, kulminatsion nuqta, dialog, qofiya, asliyat, tarjima.

Аннотация: В статье сравнивается с оригиналом каракалпакский перевод спора Хусрава и Фархада в эпосе Навои «Фархад и Ширин». Также, высказываются мнения о преобразованиях, сделанных переводчиками в процессе перевода, в частности об опущении и изменении некоторых слов в оригинале.

Ключевые слова: эпос, дискуссия, кульминация, диалог, рифма, оригинальность, перевод.

Abstract: In the article, the Karakalpak translation of Khusrev and Farhad's debate in Navoi's epic "Farhad and Shirin" is compared with the original. Also opinions are also expressed about the transformations made by the translators during the translation process, in particular, about leaving out and changing some words in the original.

Key words: epic, discussion, climax, dialogue, rhyme, originality, translation.

KIRISH.

O‘zbek va qoraqalpoq xalqlari azaldan bir joyda yashab, bir daryordan suv ichib, quvonch va tashvishlarini birligida baham ko‘rib, bir-biriga yelkadosh bo‘lib, betakror adabiyoti va bezavol madaniyatini uyg‘un tarzda yuksaltirib, boyitib kelmoqda. Adabiy do‘stlik mustahkamlanishida tarjima adabiyotining roli kattadir.

Alisher Navoiy asarlarining qoraqalpoq adabiyotiga ta’sirini Berdaq, Ajiniyoz, T.Qaypbergenov, I.Yusupov kabi yozuvchi va shoirlar ijodida yaqqol ko‘rishimiz mumkin. Navoiy asarlarini qoraqalpoq tiliga tarjima qilish XX asrning 30-yillaridan boshlangan. Xususan, 1941-yilda Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoni qoraqalpoq tilida “Фарҳад ҳам Ширин” nomi bilan kitob holida nashr qilingan. Mazkur dostonni M.Daribayev, J.Aymurzayev, N.Japaqov, A.Shamuratov, R.Majitov, K.Jumaniyazov kabi shoirlar tarjima qilganlar.



SCIENCE TIME

O‘zbek adabiyotidan qoraqalpoq tiliga va aksincha, badiiy tarjima muammolari professor K.Qurambaev tadqiqotlarida [7], dotsent K.Tashanovning monografiya va ilmiy maqolalarida [8], I.Dilmanovning dissertatsion tadqiqotida o‘rganilgan [5.]

METODLAR.

Maqolada berilgan mavzuni tadqiq etishda V.Stanevich, V.P.Ragoyshev, G.Salomov, T.Boboev, K.Qurambaev, Z.Isomiddinov, M.Karimov, J.Yusupov, K.Tashanov, I.Dilmanov singari olimlarning tadqiqot va maqolalariga tayanildi. Xusrav va Farhod munozarasining qoraqalpoqcha talqinini yoritishda qiyosiy tahlil metodidan foydalanildi.

TADQIQOT NATIJALARI.

“Farhod va Shirin“ dostoni XLI bobi taniqli qoraqalpoq shoiri N.Japaqov tomonidan tarjima qilingan. Bu bobda Farhod bilan Xusravning suhbatি keltiriladi. Farhodni Xusrav kuch bilan yengolmagach, hiyla bilan devlar to‘dasi yordamida qo‘lga tushurilishi, Xusravning oldiga keltirgach, Xusrav devlarga shohona hadyalar berishi, so‘ngra Xusrav Farhodni boshidan oyog‘igacha zanjirlab, uni tabib yordamida hushiga keltirishi, Xusravning Farhodni o‘ldirmoqchi bo‘lishi va Farhod o‘zining o‘tkir so‘zlari bilan o‘limdan qutulishi, Buzrug Ummid maslahati bilan Salosil g‘origa bandi etilishi tasvirlanganadi. Qoraqalpoqcha tarjimada bu o‘ttiz uchinchi bob bo‘lib, “Фарҳадтың тутқын болуы ҳам Ҳсыраудың сауалина жуабы“ deb nomlanadi.

Xusrav bilan Farhodning munozarasi doston syujetining kulminatsion nuqtasidir. Chunki bu vaqeа T.Boboyev ta’biri bilan aytganda –“ikki qutb o‘rtasidagi kurashning eng yuqori nuqtasi bo‘lib”, – asarning shu joyida har ikkala qahramonning ma’naviy qiyofasi nihoyatda yorqin tasvirlangan. Farhodning Xusravga bergen javoblaridan uning kim ekanligini, qanday saviyatagi shaxsligini bilib olamiz. Farhodning shaxsiyatiga xos kamtarlik Xusravga ham ta’sir etmasdan qolmaydi:

Adab birla hayo rasmin qilib fosh,
Burun indurdi majlis ahlig‘a bosh.
Chu da’b yo‘q edi so‘rmay demak so‘z,
Og‘iz so‘zidin tikib, tiki quyi ko‘z.
Shukuhidin yetib Xusravga tag‘yir,
Qilib ishq o‘ti ko‘nglig‘a ta’sir. [1.129]

“Odob va hayot qoidasiga amal qilib, avval majlisdagilarga ta’zim bilan bosh egdi. Undan birov bir narsani so‘ramasa, gapirish odati bo‘lmagani uchun o‘zini so‘zlashdan tiyib, yerga qarab turdi. Undagi bu savlatni ko‘rib, Xusravning



SCIENCE TIME

holati o'zgardi. Farhodning ko'nglidagi ishq unga ta'sir ko'rsatadi" [2.164]. Tarjimon Farhodning bu holatini aniq qilib tasvirlagan.

Адеппенен, жыллы жуз бенен кулди,
Халқты хурметлеп тұрып бас иди.
Сораусыз шдамай айтпайды ол соз,
Созын тиып дархал жерге тикти коз.
Озгерди Хырау корип саулатын,
Тасир этип жақты ашықлық отын, [4.242]

Asliyatda oltinchi baytda Farhodni Xusravning buyrug'i bilan bir hakim hushiga keltiradi. Tarjimada esa birov deb tarjma qilingan:

Бүйірды бреуге деп буны корсин,
Тезликпенен оның ендирди хушиң.

11-bayt asliyatda Xusrav tasviri:

Oyog'i ostida taxti kayoniy,
Boshi ustida toji xusravoniy.

Tarjimada:

Астында меруерттей жалтырап тахты,
Басында белгили патшалық тажы.

Asliyatda kayoniylar taxti uning oyog'i ostida, boshida esa toji xusravoniy deyiladi. Tarjimada taxti kayoniy va toji xusravoniy so'zleri tushib qolib, faqat taxtning marvariddek yaraqlashini tasvirlash bilan kifoyalanadi. Asliyatda baytga ma'no-mazmun yuklagan, qofiyadosh bu so'zlar, ya'ni sulola nomlari, tarjimada tilga olinmaydi. Ma'no-mazmun esa yo'qoladi.

Asliyatda Farhodning savlat to'kib o'tirishini:

O'zin solmay xidevi g'ayrat oyin,
Qo'pub o'lturdi solib qoshig'a chin.

"O'zini yo'qotmay, u xatti harakatlarini qo'lga olib, qoshlarini chimirgan holda turib o'ltirdi" – deya tasvirladi.

Tarjimada:

Озин беккем услап Мсыр ханындей,
Қас қағып отырды срын алдырмай.

Tarjimada Farhodning o'tirishini xuddi Misr xoniga o'xshatadi. Asliyatda esa "Misr xoni" tilga olinmaydi. Bu o'rinda tarjimon ijodiy yondashib, tashbehdan foydalangan.

Alisher Navoiy dostonida savol-javob san'atidan mohirona foydalanadi. Savol-javob she'rni yoki yirik asarning biron-bir parchasini savol-javob usulida



SCIENCE TIME

yozish san'atidir. Masalan, dostonda birinchi misra savol, ikkinchi misra javob tarzida yozilgan:

Деди: qaydin sen, ey majnuni gumroh?

Деди: majnun vatandin qayda ogoh.

Деди: nedur sanga olamda pesha?

Деди: ishq ichra majnunliq hamisha.

Xusrav savol beradi, Farhod javob qaytaradi. Savol-javoblarining o'ziyoq hech qanday sharhsiz ham ularning ma'naviyatini, madaniyati, qiyofasini, bir-biriga ters odamlar ekanligini ko'rsatib turibdi. Badiiy tasvir vosita – dialog– orqali qahramonlar ta'rif-tavsif etilgan. Bu dialog o'zining keskin dramatizmi bilan ajralib turadi. Shu bahs-munozarada ikkala obraz xarakteri uzil-kesil ochiladi.

Asliyatda:

Деди: bu ishdin o'lmas kasb ro'zi.

Деди: kasb o'lsa basdur ishq so'zi.

Ya'ni Xusrav: "Bu ish bilan tirikchilik o'tmaydi-ku" – desa, Farhod: "ishqning kuydirishi nasib bo'lsa, menga shu kifoya" deb javob beradi.

Tarjimada:

Деди: тиришиликке буннан не файда?

Деди: ышқы отына тускен зияда.

Doston tarjimasida asliyatdag'i bayt mazmunini to'la ohib bera olmaydigan baytlar uchraydi. Misol uchun, quyidagi baytda Xusrav ishq ahli nima bilan tirik yuradi deb so'raganida, Farhod: "yorga yetishganda uning qiladigan iltifoti sababli" – deydi:

Деди: ishq ahlining nedur hayoti?

Деди: vasl ichra janon iltifoti.

Tarjimada esa bu bayt yorni lazzat bilan ko'rishda deb tarjima etilgan. Bu asliyatdag'i mazmunga to'g'ri kelmaydi:

Деди: ышқы ҳалыныңг треги неде?

Деди: ярди лаззетпенен коруде.

34-bayt tarjimasi ham asliyat mazmuniga to'g'ri kelmaydi.

Asliyatda:

Деди: ko'ksungni gar choc etsa bebok?

Деди: ko'nglum tutay ham ayla deb choc.

Tarjimada:

Деди: кокрегингди жарса нетесен?

Деди: журегимнен ҳурмет етемен.



SCIENCE TIME

Mazmuni asliyatda: “— U berahm ma’shuqang ko‘ksingni yorsa nima qilarding? – Kel, ko‘nglimni ham yor! – deb tutib berardim!”. Tarjimada ikkinchi misrada asliyatdagi ma’no o‘zgarib, “yuragimdan hurmat etaman” deb tarjima qilinadi.

“Biz hammamiz badiiy so‘zni, adabiyotda poeziyani, barcha janrlarda ilhombaxsh poetik ruhni yaxshi ko‘ramiz. Shuning uchun ham tarjima qilingan har bir adabiy so‘zga mehr bilan, ehtiyyot bilan qarab, bu boradagi xato va nuqsonlardan qattiq ranjiymiz” [5.18]. Quyidagi baytga e’tibor qaratsak:

Dedi: ol ganju qo‘y mehrin nihoniy!

Dedi: tufroqqa bermon kimyoni.

Tarjimada esa “tuproqni toshga almashmayman” deb tarjimalangan:

Деди: дуня ал-да, ышқынгды тасла.

Деди: алмаспайман торпақты тасқа.

Holbuki, Farhod oddiy toshni emas, kimyoni tuproqqa bermasligini ta’kidlaydi. Kimyo so‘zi esa lug‘atda quyidagicha izohlanadi: “Kimyo – 1. Kimyo alximiya. 2. Noyob, nodir, qimmatbaho narsa [3.114]. Shoir bu joyda toshni emas, kimyoni – “noyob, nodir, qimmatbaho narsa”ni nazarda tutgan. Tarjimada oddiy tosh bo‘lib qolgan.

Jami 25 baytdan iborat bu munozarada deyarli har bir baytda ma’lum bir she’riy san’atni uchratishimiz mumkin. Xususan,

Dedikim: ishq o‘tidin de fasona!

Dedi: kuymay kishi topmas nishona.

- baytida “o‘t” va “kuymoq” so‘zleri yordamida tanosub san’ati qo‘llanilganligini ko‘ramiz. Tarjimada ham bu san’at saqlangan:

Деди: эртек сойле ышқы отынан,

Деди: куймегенлер табалмас ншан.

Keyingi baytda assonans badiiy san’atidan foydalanadi. Bu san’at “a” unlisining takrorlanishi asosida vujudga kelgan:

Dedikim: kuymagingni ayla ma’lum!

Dedi: andin erur joh ahli mahrum.

Tarjimada “a” unli olti joyda kelgan:

Деди: күймеклиkti айтқыл жақсылап,

Деди: таж кигенлер сүйюден аулақ.

Xusrav savol-javobda ham, hiyla yo‘li bilan ham, jismoniy kuch ishlatib-da, Farhodni yengolmaydi, chunki dunyoviy kuch hech qachon ilohiy qudratni yengishi mumkin emas. Xusrav Farhodni dorga osmoqchi bo‘ladi va osilgandan so‘ng xalq “ko‘klam yomg‘iridek o‘qqa tutsin” deb buyruq beradi:



SCIENCE TIME

Chekilgach o‘ylakim abri bahoron,
Ulus qilmog‘lig‘ oni tiyboron.

Tarjimada:

Дарда олгеннен сонг асылып тұрсын,
Лашкерлер жаундай оқлар жаудырсын.

Tarjimada esa “xalq” emas “lashkarlar” so‘zi qo‘llaniladi. “Abri bahoron” tashbehi ham keltirilmagan.

Asliyatda 111-bayt:

G‘urur o‘ti ichidin so‘ngay erdi,
Shijoat rasmini o‘rgangay erdi.

Tarjimasi:

Ишинде зулымлық отлари сонер,
От сондиру режесин үйренер.

Asliyatdan Xusravning ichidagi g‘urur o‘ti so‘nib, shijoatni o‘rganib olgan bo‘lardi degan ma’no kelib chiqadi. Tarjimada esa zulm o‘tlari so‘nar va o‘t so‘ndirish rejasini o‘rganar deb o‘girilgan. Ko‘rinib turibdiki, bayt mazmuni to‘liq qilib ochib berilmagan, yo‘l-yo‘lakay tarjima qilib ketilganga o‘xshaydi.

Doston tarjimasini o‘qir ekanmiz bir qancha baytlarning tarjimalanmasdan qolib ketgnligining guvohi bo‘lamiz. Masalan, XLI bobda 78-baytdan boshlab 94-baytgacha, ya’ni 17 bayt tarjimada tushib qolgan. Bu o‘rinlar doston voqealarining avj nuqtasidir. Bu baytlarda Farhod Xusravga shunday ta’sirli gaplarni aytadiki, bu gaplardan keyin Xusrav uni o‘ldirish fikridan voz kechadi. Farhod bandi bo‘lib qolguncha kul bo‘lib yo‘qolib ketishi yaxshiligini aytadi. Farhodning ishq yo‘lidagi qarashlari shu joylarida yorqin tasvirlanadi. Xusravning ishq yo‘lida nihoyatda bechoraligini, ojizligini, Farhod bilan yakkama-yakka kurashishga yuragi dov bermaganligi, haqiqiy oshiq aslida qanday bo‘lishi, Farhod tilidan aniq ifodalananadi. Muallif bu ikki qahramonning munozarasini tasvirlar ekan, avom ishqini va ilohiy ishq o‘rtasidagi farqlarni ko‘rsatib beradi. Asliyatda bu bob jami 168 bayt, tarjimada 157 baytdan iborat. 7 bayt tarjimon tomonidan qo‘shilgan. Ya’ni asliyatdagı bir bayt ikki bayt qilib tarjima qilingan joylar ham bor.

Yaxlit dostonning ayrim ichki epizodlari qisqartirilgan bo‘lsa ham, lekin bu mazmun va sujetning butunligi, voqealarning mantiqiy rivojiga halal yetkazmagan. Mazkur tarjimada ham tarjimon imkon boricha asliyatdagı ma’no va mazmunni saqlab qolgan. Shu o‘rinda litvalik shoir va tarjimon V.B.Bleje fikrlariga e’tibor qaratsak: “Mening biz yaratayotgan tarjima nazariyasiga unchalik ishongim kelmaydi. Ishqilib, keyin o‘zimiz qurgan qal’ani o‘zimiz buzib o‘tirmasak bo‘lgani” [6.30] degan edi.



SCIENCE TIME

Professor K.Qurambaevning «...*badiiy tarjimada mumtoz she'riy san'atlarni aynan berish oson emas. Bunga, ehtimol tarjima qilinayotgan til imkoniyatlari yetarli emasligi sababdir. Shuning uchun bo'lsa kerak, ayrim tarjimonlar sharqona she'riy san'atlar, murakkab obrazli ifodalarga qurilgan bayt va misralarni jo'nlashtirib, oddiy, quruq ma'lumotga aylantirib tarjima qilish»lari to‘g‘risida bildirgan fikrlarini tahlillarimiz ham dalolatlaydi [9. 223]*

XULOSA.

Haqiqattan ham, biz tarjimon oldiga undigda emas, bunday tarjima qilishi kerak deb shart qo‘ya olmaymiz. Chunki, tarjima birinchi navbatda badiiy matn bilan bog‘liq jarayon. Lekin tarjimaning vazifasi B.B.Baxtin ta’biri bilan aytganda, “boshqa til muhitida original o‘quvchisi olgan taassurotni qayta yaratishdan iborat” [6.33] ekanligini ham unutmasligimiz kerak. Ya’ni o‘zbek kitobxoni “Farhod va Shirin”dan qanday taassurot olsa, qoraqalpoq kitobxonlari ham xuddi shunday taassurot olishi darkor.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, “Farhod va Shirin” tarjimasi faqat yangi bir kitobgina emas, mazkur tarjima qoraqalpoq adabiyoti rivojiga o‘zining munosib hissasini qo‘shadi. Zamonlar osha dostondagi chin insoniy g‘oyalar avlodlarga namuna, ibrat bo‘lib qolaveradi.

ADABIYOTLAR:

1. Алишер Навоий. Хамса. Қайта тузувчилаар: А.Ҳайитметов, М.Мирзаахмедова. -Тошкент, Адабиёт ва санъат нашриёти, 1986. – 424 бет.
2. Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. Насрий баён муаллифи Ғ.Ғулом. Насрий текстни айрим тўлдиришлар билан қайта нашрга тайёрловчи: А.Ҳайитметов. -Тошкент, Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975.
3. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. ИИ том. -Т.: Фан. 1983.
4. Алишер Науайы. Фарҳад ҳам Ширин. М.Дарибаев, Ж.Аймурзаев, Н.Жапақов, А.Шамуратов, Р.Мажитов, К.Жуманиязов -Торткул. Қарақалпақ мамлекет баспасы. 1941.
5. Дилманов И. Қардош тиллардан эпос таржимасида миллий ўзига хосликнинг қайта талқини. (“Шахриёр” ва “Маспошиб” достонларининг ўзбекча таржималари мисолида) Филология фанлари номзоди илмий даража олиш учун ёзилган диссертация. -Тошкент, 2005.
6. Таржима санъати. Мақолалар тўплами. – Тошкент, Адабиёт ва санъат нашриёти 1980.



SCIENCE TIME

7. Қаранг: Қурамбаев К. Қеүил кеүилден суў ишер. -Нөқис, Билим. 1991; Қурамбаев К. Таржима ва таржимон маъсулияти. -Тошкент, Фан. 2007; Қурамбаев К. Адабий жараён, ижод маъсулияти, адабий алоқалар. - Тошкент, Фан. 2009; Қурамбаев К. Навоийнинг ижод бўстонидан илҳомланиб... - Тошкент, Фан. 2021.
8. Қаранг: Ташанов К. Таржимон ўзгартишларининг матн мазмунига таъсири. //Ўзбек тили ва адабиёти журнали, 6-сон, 1991; Ташанов К. Миллий характер ва бадиий таржима. -Тошкент, Фан ва технологиялар маркази босмахонаси, 2015. -139 б.; Ташанов К. Қаҳрамон ндивидуал-психологик қиёфасидаги экспрессивликни таржимада қайта тиклаш. // Ўзбекистон Миллий ахборот агентлиги – ЎзА Илм-фан бўлими (электрон журнал) 2020 йил феврал; Ташанов К. Диалог таржимасида қаҳрамон характерини қайта тиклаш.// “Ilm hám jámiet” журнали 2020 (№1) 96-99-бетлар; Ташанов К. Туйғулар ифодаси ва таржима. // “Ilm hám jámiet” журнали 2020 (№2) 105-108-бетлар; Tashanov K. Portrait and types of heroes in literary works. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal <https://saarj.com>. ISSN: 2249-7137 Vol. 10, Issue 4, April 2020 Impact Factor: SJIF 2020 = 7.13 PAGE NO: 771-777 DOI NUMBER: 10.5958/2249-7137.2020.00140.8
9. Қурамбаев К. Навоийнинг ижод бўстонидан илҳомланиб... - Тошкент, Фан. 2021. -Б 223.